

TIL – MILLAT G‘URURI

Raximqulova Malika Sherzod qizi

O‘zMU Jizzax filiali talabasi

Sindorov Lutfulla Kurolovich

O‘zMU Jizzax filiali f.f.f.d.(PhD)

E-mail: lutfulla1803@mail.ru

ANNOTATSIYA

Til insonni inson qiluvchi yagona omil bo‘ladi, faqat ugina insonni hayvondan ajratuvchi vositadir. Biz yoshlar tini aslicha, boy holda saqlab qoluvchilardan hisoblashadi.

Kalit so‘zlar: Til, milliy til, millat va elat tillari

Inson til orqali dunyoni o‘zlashtiradi, tarixni o‘rganadi, yaqinlari bilan muloqotga kirishadi, o‘zligini taniydi, ma‘rifatni anglab yetadi. Til bilan o‘z faoliyatini yuritadi. Aslida eng katta baxt mana shudir.

Dunyo xalqlari xilma-xil tillarda gaplashadilar. Biroq fan aniqlikni yaxshi ko‘radi. Shu tufayli vaqti-vaqti bilan tilshunoslar tillar sonini hisoblaydilar va o‘z ma‘lumotlarini e‘lon qiladilar. Kurrayi zaminimizda taxminan 5621 ta til va sheva bor bo‘lib hozirgacha ulardan 500 tasigina o‘rganilgan xolos. Har uch tildan bittasining yozuvi mavjud emas, faqat og‘zaki nutq shakliga egadir. Bugungi kunda shunday tillar borki, ayni vaqtlarda umri tugamoqda, shunday millatlar borki o‘z tilida suhbatlashish, muloqot qilish haq-huquqiga ega emas, ya‘ni ularning o‘z ona tili hamon davlat tili maqomiga ega emas. Ular yorqin istiqbolga ega bo‘lish uchun hamda o‘z oilasini boqish uchun, davlat tashkilotlariga murojaat qilish uchun ham boshqa tildan foydalanishga majbur. Bu qora kunlar o‘zbek eli boshiga ham o‘z ko‘lankasini solmay qolmagan. O‘tgan asrni biz Chor Rossiyaga qaram bo‘lib o‘tkazdik. Bugungi kunda biz yoshlar uchun oddiy bir tarixiy voqea bo‘lib ko‘rinadi, xolos. Aslida esa buni tarix zilzilasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tasavvur qilaylik, avvallari davlat ishlarida ishlovchilar o‘zbek tilida suhbatlashishmagan, barcha hujjat tillari ham rus tilida bo‘lgan.

Til bu insonning o‘zligi demakdir. O‘tgan asrning 80-yillarida buyuk alloma Alixonto‘ra Sog‘uniy o‘zining “Turkiston qayg‘usi” asarida shunday misralar keltirilgan “Odam o‘zligini unutmasligi uchun uch narsani qo‘ldan boy bermasligi kerak: Vatanini, dinini va tilini. Vatanni boy berdik. Dinimizni boy berdik. Endi

tilimizni ham unutsak, biz kimmiz?”¹ Bu kabi soʻzlar inson vujudini titratadi, qalblarni larzaga soladi. Xalqimizdan yerusti va yerosti boyliklarni tortib oldi, jim qoldi, bosh koʻtarmadi, dinini tortib oldi, bosh koʻtarganlar yoʻq qilindi, yosh avlodni ilmsiz qildi, xalqni ilmiy qilish uchun harakat qilganlarni, yaʼni ziyoli qatlamni yoʻq qildi, tilini tortib oldi yana sas-sado chiqmadi. Tarixiy durdonalar yoʻq qilindi, buyuk bobokalonlarimiz yovuz bosqinchi qilib koʻrsatildi tanti xalqimiz barchasiga koʻndi, chaqaloqligidan qoniga singan ona allasi, momolar aytimlari, bobolar nasihati bilan kirgan tilni boshqasiga almashtirish odamgarchilikdan emas. Shifoxonaga borib kasallik varaqasini toʻldirish uchun rus tilidan foydalansa, soliqlar toʻlash, sovrinlar olish uchun, oʻz mahallangni nomlash uchun oʻzingiz bolalikdan har bir daqiqada foydalanadigan tildan emas, balki oʻzga tildan foydalanasiz sizning tilingiz ming yillar davomida shu makonda ildiz otib keladi-yu, ikkinchi darajali boʻlib qoladi. Tilimiz borligi qogʻozda bor, amalda yoʻq. Dilimizdagini tilimizga chiqara olmaymiz. Mazlumlar tilida qoʻshiq kuylaymiz, hattoki “Mening ikki onam bor...” deb hayqirishga majbur boʻldik. Shoir Muhammad Yusuf yozganidek:

Kimdir mayda millat boʻldi, kimdir katta,
Katta millat Afandisi yoʻqdir hatto,
Biz piyoda, biz boqqanlar yurdi otda,
Zulm oʻtsa faqat sendan oʻtdi zulm,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.²

Darhaqiqat, bizning gʻururli xalqimiz bu holga jim qarab turmadi. Ular uchun bu juda ham mashaqqatli kechsa ham chekinmadi hamda oʻzlarining maqsadlariga erishishdi. Oʻzbekiston mustaqilligi uchun dastlabki dadil qadamni oʻzbek tiliga Davlat tili maqomini berishdan boshladi.

Mustaqillik eʼlon qilinmasdan oldin uzoq yillar boʻgʻilib, goʻyo qafasda asralgan qushning erkinlikka quvonchga toʻlib uchganidek, baland samo sari oʻz qanotlarini qoqa boshladi. Mustaqillikdan soʻng oʻzbek tili uchun alohida eʼtibor qaratila boshlandi. Bu borada yangi oʻquv dasturlari hamda qoʻllanmalari, darsliklar, risola va monografiyalar nashr etilayotgani, ilmiy anjumanlar tashkil qilinayotgani, ommaviy axborot vositalarida oʻzbek tilining buguni va istiqboli haqida amaliy taklif va tashabbuslar bildirilayotgani gʻoyat muhim ahamiyatga ega.

Xabarimiz borki, azim poytaxtimiz markazidagi Milliy bogʻ hududida adiblar xiyoboni bunyod qilinmoqda. Bu goʻzal va takrorlanmas yodgorlik majmualari adabiyotimizning buyuk namoyondalari, oʻzbek tilining chinakam jonkuyarlari xotirasiga bagʻishlanadi.

¹ Alixontoʻra Sogʻuniy “Turkiston qaygʻusi”; 2003-y. “Sharq” nashriyoti.

² Muhammad Yusuf. Saylanma: Sheʼrlar. Dostonlar. Xotiralar. – T.: “Sharq”. 2007. – B. 352.

O‘zbek tili o‘tgan yillar davomida mamlakatimizdagi yuzdan ortiq millat va elat vakillarini o‘zaro bog‘laydigan mehr-oqibat tiliga aylandi.

Bundan besh asr muqaddam Navoiy bobomiz:

“Turk nazmida chu men tortib alam,

Ayladim bu mamlakatni yakqalam”¹ deb yozgan edilar. Barchaga yaxshi ayonki, ona tili millat ma’naviyatining mustahkam poydevoridir.

Ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, har bir millatning duyoda borligini ko‘rsatadigan oyinayi hayot-bu uning milliy tili hamda adabiyotidir. Aynan mana shu tilimiz bugungi kunda shoir va yozuvchilarimiz asarlarida, sportchilarimiz jahon musobaqalarida g‘olib bo‘lishganda yangragan madhiyamizda olamga baralla yangramoqda. Mana shu ne’mat uchun qancha shukronalar aytsak ham kam. Bobolar qilgan harakatlarning hech biri besamar ketmadi.

Bu fikrlarimiz bilan biz rus tilini qoralash niyatimiz yo‘q. Chet tillarini o‘rganish barcha uchun juda foydali. Inson dunyoqarashini o‘zgartiruvchi bu chet tillaridir. Ammo bugungi kunda ko‘plab o‘sprinlar va yoshlar turli chet tilini o‘rganib ona tiliga bo‘lgan e’tiborini yo‘qotib qo‘ymoqdalar. Shu sababli, prezidentimiz o‘zlarining 20-dekabrdagi murojaatnomasida “Milliy o‘zligimizning timsoli bo‘lgan, ma’naviyatimiz asosi bo‘lgan ona tilimizga e’tibor yanada kuchaytiriladi. Albatta, oilamizda ham chet tillarini bilish albatta bilish kerak, bu zamon talabi. Lekin ona tilini bilishga majbur qilishimiz kerak”² deya ta’kidlab o‘tganlar. Hozirgi yosh avlod boshqa tillarni o‘rganishi bu katta yutuqlardan biri, ammo ona tilini ham unutmasligi kerak. Aks holda, bizning ona tilimiz ham eski tillar oilasiga singib ketadi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma’naviy-ma’rifiy masalalarga doir har bir chiqishlarida ona tilini, milliy qadriyatlarni e’zozlash, ajdodlar merosini qadrlash, ularning tafakkur mahsulidan unumli foydalanish, kitob mutolaasiga alihida e’tibor qaratish ta’kidlanadi: “Bugun O‘zbekistonimiz “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko‘tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi oshib bormoqda.

O‘zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda faol qo‘llanib, xalqaro minbarlarda barilla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e’tibor va uni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kuchaymoqda

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini,

¹ Vahob Rahmonov “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2003-yil 6-sonidan olindi.

² .Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2022-yil 20-dekabrdagi Murojaatnoma nutqidan.

ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy.”¹ Muhtaram Prezidentimizning soʻzlari yuqoridagi fikrlarimiz dalili desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Milliy oʻzlikni saqlash biz yoshlar qoʻlidadir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. Alixontoʻra Sogʻuniy. “Turkiston qaygʻusi”; 2003. “Sharq” nashriyoti.
2. Muhammad Yusuf “Saylanma”; 2001. “Sharq” nashriyoti.
3. Vahob Rahmonov “Soʻz jahongiri” “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʻati” gazetasining 2003. 6-soni.
4. Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2022-yil 20-dekabrdagi Murojaatnomasi.
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5850-son farmoni/lex.uz/docs/4561730
6. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi [Matn]:darslik. Toshkent : Shafolat Nur Fayz, 2020. –B. 256.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5850-son farmoni/lex.uz/docs/4561730.